



ANALYSIS OF INTERNATIONAL SCIENCES
International scientific journal

Volume: 2 Issue: 6



**BO`LAJAK O`ZBEK TILI O`QITUVCHILARINING NUTQINI
RIVOJLANTIRISHDA O`QIB TUSHUNISHNING O`RNI**

Matnazarova Zumrad Abdurahmon qizi

*Ajiniyoz nomidagi NDPI Turkiy tillar fakulteti
2-bosqich talabasi*

Qurbanbayeva Aziza Ilhom qizi

*Ajiniyoz nomidagi NDPI Turkiy tillar fakulteti
2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutq o`stirishning samarali usullari haqida so`z yuritiladi. Nutq o`stirish tushunchasi, nutq turlari, o`qituvchi va o`quvchi nutqiga qo`yiladigan talablar izohlanadi. Ona tili fanini o`qitishda o`quvchilar nutqini nutqini o`stiruvchi metodlardan foydalanishning ahamiyati tahlil etiladi.

Kalit so`zlar: Metod, tushunish, til vositalari, metodika, nutq, muloqot, o`qib-tushunish.

Hozirgi kunda jamiyat turmushida o`qib tushunish muloqot vositasi sifatida katta ahamiyatga ega. Avvalo o`qib tushunish tushunchasiga ta`rif bersak. O`qib tushunish - bu muayyan matnning grafika yordamida ifodalangan mazmunini muloqot vazifasiga qarab qabul qilish va qayta ishlash, ini mazmunan tushunib anglab yetishga qaratilgan faoliyat turi demakdir. Biz kundalik hayotda turli tarzda o`yimiz. O`qishning xususiyati ma'lum vaziyatda o`qishdan ko`zlaydigan maqsadimizga bog`liq bo`ladi. Shunga ko`ra o`qib tushunish bir necha guruhlarga bo`linadi: Tahliliy o`qish, o`rganish uchun o`qish, yuzaki o`qish, izlanuvchi o`qish, tanishish uchun o`qish.

O`qish birinchi navbatda nutq malakalari va ko`nikmalarini shakllantirish hamda ularni nazorat qilish vositasi vazifasini bajaradi. Til o`rganish jarayonida til materiallarini o`zzlashtirish jarayonini optimallashtiradi. Grammatika va leksika, tinglab tushunish yozish va og`zaki nutq mashqlari o`qib tushunish orqali amalga oshiriladi. Xususan o`zbek tili o`qituvchilari o`qib tushunish orqali mashqlarni bajarishda katta qulayliklarga ega bo`ladi. O`zbek tilini o`qitishda ko`proq o`quv matnlarining bir necha turlari qo`llaniladi. Jumladan ovoz chiqarib va ichdan o`qish, bir tildan boshqasiga tarjima qilish, tayyorlanib o`qish va tayyorlanmasdan birdaniga o`qish. Umuman olganda o`qishga o`rgatishdan asosiy maqsad nutqiy faoliyatni rivojlantirishdir. “O`qish texnikasiga oid malakalar dastlabki, kirish fonetika kursida shakllantirila boshlaydi. Bunday malakalarni hosil qilishga qaratilgan mashqlar



ANALYSIS OF INTERNATIONAL SCIENCES International scientific journal

Volume: 2 Issue: 6



qiyinlashib boradigan elementlar - harflar, harf birikmaları, so`zlar, gaplar, mikromatnlarni talaffuz qilish asosiga quriladi.”¹ Tayyorgarlik ko`rib o`qish matn bilan tanishib chiqishdan oldin lingvistik qiyinchiliklarning oldini olish nazarda tutiladi. Matnda qo`llanilgan so`zlar va ularning ma`nosini izohlashda matnni aynan tahlil etish, uni qayta va qayta o`qib chiqish talab etiladi. Tayyorgarliksiz o`qish lingvistik jihatdan yengil matnlar uchun xosdir. Tayyorgarliksiz o`qish uchun tayyorlangan matnlarda notanish so`zlar, muayyan qoliplar bo`lishi mumkin. Ammo matndagi axborot to`liq tushunilishiga to`sinqilik qilmasligi kerak. “ O`qib tushunish uchun matnlarni tanlash tamoyillari ta’lim mazmunini maqsadga muvofiqlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Bunda matn mazmuniga hamda lisoniy jihatlariga e’tibor beriladi”.²

Grammatik mashqlar, og`zaki nutqni shakllantirishda o`qib tushunish katta ahamiyatga ega. Shuningdek o`qishning lug`at boyligini oshirishdagi roli beqiyosdir. Asosan o`qish protsessida ko`p uchraydigan so`z va iboralar faol leksikaga o`tadi. Og`zaki nutqda faol qo`llaniladi. O`qib tushunishning o`ziga xos xususiyati shundan iboratki, o`qish davomida ongsiz tarzda eslab qolish ro`y beradi ya’ni miya avtomatik tarzda o`qilgan ma’lumotlarni bazaga saqlay boshlaydi va nutqda kerakli joyda uni chiqarib beradi. Matnni tushunish bosqichlari hammada ham bir xil amalga oshmaydi. Bu uning fiziologik va psixologik imkoniyatlariga bog`liq bo`ladi. Matndagi axborotni tushunish malakasi faqatgina matn muallifining g`oyasi, fikrlari uni o`qiyatgan odamning qabul qilish darajasiga ham bog`liq. Matndagi axborotni analiz qilish uni o`qib tugatgandan keyin emas, o`qish davomida axborotni qabul qilish jarayonida amalga oshadi.

O`qib tushunish nutqiy faoliyatning turlaridan biri sanalib u murakkab psixofiziologik jarayondir. Til sohasida fonetik, leksik-grammatik bilimlar asosida shakllanadi. Matnni o`qib tushunish qobiliyati o`quvchining soha bo`yicha ko`nikmaları va ma’lumotni qayta ishlash qobiliyati ta’sir etadi. Agar o`quvchi matndagi so`zlarning ma`nosini tushunmasa matnni qayta ishlash uchun ko`proq vaqt sarflashga majbur bo`ladi. O`qib tushunish malakasini rivojlantirish uchun bir qator

¹ Muxitdinova X.S. “O`zbek tilini o`qitish metodikasi” T-2021

² Sharopova F.V. “Oquvchilarda matnni o`qib tushunish malakasini shakllantirishning nazariy va metodik asoslari” T-2020.



mashqlar mavjud. Matnlarni tanqidiy tahlil qilish, matnni maydalab o`qish, matnni qismlarga ajratish orqali o`qib tushunish imkoniyatlari kengayadi.

Xulosa qilib aytsak, o`qib tushunish o`zbek tili o`qituvchilari uchun ancha imkoniyatlarga ega. O`qituvchi avvalo muayyan matnni to`liq o`zi individual o`zlashtirishi orqali o`quvchilari bilan matnning mazmun mohiyatini to`la ochiq ko`rsata oladi. Matn mazmunini tushunish bilan bog`liq malakalar gaplar va xatboshilar orasidagi ma`noviy munosabatlarni toppish bilan shakllanadi. Bunday mashqlarning asosiy vazifasi matnning ma`no jihatdan yaxlitligini anglashga yordam berishdan iborat. Matnni o`qishda bir qator vazifalar qo`yiladi: ularni bir-biriga bog`lash, yaxlitlash, ajratish. O`qishni nazorat qilish mashqlarini tanlashda uning nazorat obekti uning mazmunidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ismailov.A “ Xalqaro tadqiqotlarda o`quvchilarning o`qish savodxonligini bsaholash” T-2019
2. Azimova.I “ O`zbek tilidagi gazeta matnlarining mazmuniy persepsiyasining tadqiqi” T-2019
3. To`xliyev. B “ O`zbek tili o`qitish metodikasi” T-2006
4. www.ziyouz.com internet sayti
5. www.pedagoglar/uz internet sayti.